

O‘ZBEK XALQINING SHAKLLANISHINING ASOSIY YONDASHUVLARI

Gulmurotov Eshnazar G‘ofur o‘g‘li
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand
davlat universiteti magistranti
geshnazar@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi o‘zbek xalqining shakllanishi va etnik tarixi bo‘yicha tarixchi olimlar tomonidan ilgari surilgan yondashuvlar yoritib berilgan. O‘zbekiston tarixini o‘rganish uchun, eng avvalo, o‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixini tadqiq qilishdan boshlash lozim. Har bir xalqning o‘z shakllanish davrlari, ya‘ni jarayonning boshlanish va yakunlanish vaqti mavjud. O‘zbek xalqining shakllanish jarayonlariga bag‘ishlab tarixchi olimlar tomonidan turli yondashuvlar ishlab chiqilgan. Ushbu yondashuvlar arxeologik, tarixiy-yozma va lingvistik manbalar yordamida chuqur o‘rganilib, tahlil qilingan. Bundan tashqari, tezisdagi o‘zbek xalqining etnogenezi va shakllanish bosqichlarini o‘rganishdagi zamonaviy hamda klassik ilmiy yondashuvlar ham tahlil etiladi.

Abstract. This thesis examines the scientific approaches of historians regarding the formation and ethnic history of the Uzbek people. The study of the history of Uzbekistan must, first and foremost, begin with the investigation of the ethnogenesis and ethnic history of its people. The formation of every nation consists of specific stages, marking the beginning and the completion of the process. Various approaches to the formation of the Uzbek people have been developed by historians, which are analyzed in depth using archaeological, written, and linguistic sources. Furthermore, the thesis provides a comparative analysis of both classical and modern scientific approaches to studying the stages of the ethnogenesis of the Uzbek people.

Аннотация. В данном тезисе рассматриваются научные подходы историков к изучению формирования и этнической истории узбекского народа. Изучение истории Узбекистана, прежде всего, необходимо начинать с исследования этногенеза и этнической истории его народа. Формирование каждого этноса имеет свои этапы, включая периоды начала и завершения данного процесса. Историками разработаны различные концепции формирования узбекского народа, которые глубоко проанализированы на основе археологических, письменных и лингвистических источников. Кроме того, в работе проводится сравнительный анализ классических и современных научных подходов к изучению этапов этногенеза узбекского народа.

Kalit soʻzlar: Oʻzbek xalqi, etnogenez, etnik tarix, shakllanish bosqichlari, avtohton qatlam, turkiy qabilalar, tarixshunoslik, arxeologik manbalar, lingvistik tahlil.

Keywords: Uzbek people, ethnogenesis, ethnic history, stages of formation, autochthonous layer, Turkic tribes, historiography, archaeological sources, linguistic analysis.

Ключевые слова: узбекский народ, этногенез, этническая история, этапы формирования, автохтонный слой, тюркские племена, историография, археологические источники, лингвистический анализ.

Oʻzbek xalqining etnik shakllanish jarayoni tarixichi olimlar oʻrtasidagi munozarali masala boʻlib kelmoqda. Chunki oʻzbek xalqining etnik shakllanish jarayonining boshlanish davri va shakllanib boʻlgan davr tarixchilarning ilmiy tadqiqotlari natijasida turli xil davr etib belgilangan. Oʻzbek xalqining etnik shakllanish jarayoni chuqur tahlil qilib oʻrgangan akademiklar A.Asqarov va K.Shoniyozovlar oʻz ilmiy yondashuvlarini tadqiqotlarida keltirib oʻtgan. Ammo bu ikki akademik olimlarning yondashuvlarida oʻzbek xalqining etnik shakllanish jarayoni ikki xil davr bilan tahlil qiladi. Undan tashqari, Sobiq sovet tarixchilari ham ilmiy tadqiqotlaridan kelib chiqib oʻzbek xalqining shakllanish jarayonlari boʻyicha ilmiy yondashuvlarini ishlab chiqdi.

Oʻzbek xalqining kelib chiqishi muammosining yechimiga aloqador fan tarmoqlari rivojlanib, uni kompleks oʻrganishga oʻtilgach, Oʻzbek xalqining kelib chiqishi masalasida birdan bir toʻgʻri boʻlgan milliy avtohtonizm nazariyasi ishlab chiqildi. Bunga koʻra har bir xalqning kelib chiqishini oʻrganishda uning etnik tarkibini aniqlash zarurligini, uning etnogenezi va etnik tarixini, madaniy merosini, sarhadlarini, davlatchilik tarixini chuqur oʻrganib toʻgʻri xulosa qilish kerak boʻladi. Oʻzbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi masalasi oʻta murakkab muammo boʻlib, u izlanuvchidan zoʻr masʼuliyatni talab qiladi. Oʻzbek xalqining tarixini chuqur oʻrganish kerak va muammoning ilmiy yechimida milliy ehtirolarga berilmaslik kerak.

Etnologiya sohasidagi etnik kelib chiqish nazariyasi boʻyicha ilmiy ishlarga koʻra, har bir xalqning kelib chiqishi tarixi uch bosqichdan iborat. Birinchi bosqich bu etnogenetik jarayon tarixi boʻlib, ikkinchi bosqich bu etnos tarixi, yaʼni xalq tarixi, uchinchi bosqich millat tarixi. Xalqlarning etnogenez qismi ularning xalq va millat sifatida shakllanishidan oldingi davrni oʻz ichiga oladi. Xalqning kelib chiqishi qabiladan boshlanadi. Xalq etnogenezi oxirida xalqqa xos boʻlgan barcha etnik xususiyatlar mujassamlashadi. Etnik xususiyatlarga hududiy, iqtisodiy, etnik madaniy,

antropologik tip, etnik nom, o'zini anglash, lingvistik va nihoyat, siyosiy birliklar orqaligina shakllanadi.

Akademik A.Asqarovning ilmiy tadqiqotlariga ko'ra xalq biologik hosila emas, balki ijtimoiy uyushma birligidir. Akademik A.Asqarovning ilmiy tadqiqotlariga ko'ra xalq darhol hosil bo'lmaydi, balki uzoq davom etadigan etnogenetik jarayon mahsuli va etnik alomatlar yig'indisidir. Ya'ni xalqning etnik alomatlarining shakllanishi esa etnogenetik jarayonlar davomida birin-ketin sodir bo'lib boraveradi. Xalqning etnogenez shakllanish jarayoni yakunlangach, uning etnik tarixi boshlanadi, ya'ni shakllangan xalq tarixi boshlanadi. Xalq bu feodal jamiyatning ijtimoiy mahsuli bo'lib, u ba'zi hollarda dastlabki sinfiy jamiyat sharoitida ham yuz berishi mumkin. Xalqning tarixi o'z iqtisodiy-xo'jalik va etnomadaniy rivojining ma'lum nuqtasiga yetgach, uning millat bo'lib shakllanish jarayoni boshlanadi. Xalqning millat bo'lib shakllanish jarayoni jamiyatda kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlarining boshlanishi bilan yuz bera boshlaydi. Shuning uchun millat kapitalizmning ijtimoiy mahsuli hisoblanadi. Xalqlarning kelib chiqishi masalasidagi bunday ilmiy qarashni va muammoning yechimini kompleks yondashuv asosida o'rganishga o'tilgach, akademik A.Asqarovning bu ilmiy yondashuvi etnologiya fanida o'z o'rnini topdi.

Har bir xalqning etnogenezi, etnik va millat bo'lib shakllanishi tarixining har birini alohida olganda, ularning har birining boshlang'ich va yakuniy nuqtalari bor. Masalan, mana shu ilmiy konsepsiyaga ko'ra, o'zbek xalqi etnogenezining boshlang'ich nuqtasi sifatida akademik A.Yu.Yakubovskiy tomonidan olib borilgan tadqiqotlarida dastlab turk xoqonligi davri qabul qilindi. Keyinroq akademik S.P.Tolstov nuqtayi nazariga ko'ra, o'zbek etnogenezining boshlang'ich nuqtasini antik davrgacha qadimiylashtirdi. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi bo'yicha fundamental tadqiqotlar olib borgan akademik Karim Shoniyozov ham "O'zbek xalqining shakllanish jarayoni" asarida o'zbek xalqining etnogenezini boshlang'ich nuqtasini antik davrgacha qadimiylashtirdi.

Akademik A.Asqarov nuqtayi nazariga ko'ra esa o'zbek xalqining etnogenezining boshlang'ich nuqtasini so'nggi bronza davri bilan belgilanmoqda. Akademik A.Asqarovning bunday ilmiy qarashining asosida o'zbeklarning o'q tomiri, ya'ni bosh ildizi ikki tilda so'zlashuvchi etnik qatlamlar bo'lgan eroniyzabon va turkiylarning qorishuv natijasi ekanligi va ularning qorishuvining dastlabki sanasi so'nggi bronza davridan boshlanganligini asos qilib olingan.

O'zbek xalqining kelib chiqishi haqidagi milliy avtohtonizm konsepsiyasi ilmiy-metodologik jihatdan asosli bo'lsa-da, uning ayrim tomonlarini jiddiy ilmiy izlanishlar bilan tahlil qilish talab qilinadi. Milliy avtohtonizm nazariyasiga ko'ra, tadqiqot ishlar

olib borgan olimlarning nazariyasida shuni ko‘rishimiz mumkinki, o‘zbek xalqining etnogenezing boshlang‘ich nuqtasini turk xoqonligi yoki antik davri edi. Shunda o‘zbek xalqining etnogenezing asosini turklar tashkil qilgan bo‘ladi. Ammo bu davrlardan oldin ham O‘zbekiston hududida boshqa qabilalar ham yashaganini tarixiy yozma va arxeologik manbalardan ko‘rishimiz mumkin. O‘zbek xalqining etnogenezing asosida eroniyzabon qabilalarning ishtirokini hisobga olinmadi. Bu qarashlardan yana shuni ko‘rishimiz mumkinki, o‘zbek xalqining etnogenezing asosida ishtirok etgan turkiy qabilalarga nisbatan kelgindi degan qarash yuzaga keladi. Bunda esa eroniyzabon qabilalar tubjoyli aholi bo‘lib qoldi.

Ammo o‘zbek xalqining etnogenezingni chuqur ilmiy tahlil qilishda faqat tarixiy yozma va lingvistik manbalarga tayanib qolmaslik kerak bo‘ladi. Xalqning etnogenezingni o‘rganishda arxeologik va antropologik manbalarda ham ilmiy tadqiqot ishlari olib borilishi muamoning yechimini topishga yordam beradi.

O‘zbek xalqining kelib chiqishi tarixini o‘rganishda arxeologik va antropologik manbalarga ham tayanib o‘rganilganda turkiy qabilalar antik davrdan oldin bronza davrda O‘zbekiston hududiga kirib kelgani aniq bo‘ldi. Demak o‘zbek xalqining etnogenezingda ikki tilli qabilalar bo‘lgan turkiy va eroniyzabon qabilalar ishtirok etgan. Dunyo xalqlarining etnogenezingi va etnik shakllanishi jarayonida faqat bitta etnik birlik asos bo‘lmagan. Ularning etnogenezingi va etnik shakllanishi jarayonida ikki va undan ortiq etnik birliklar ta’sir qilgan. Buni biz boshqa xalqlarning etnik tarixidan bir qancha misollarni ko‘rishimiz mumkin. Masalan, amerikaliklar, inglizlar, kanadaliklar va turkiyaliklar kabi xalqlarni misol qilish mumkin bo‘ladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o‘zbek xalqining kelib chiqishi tarixini o‘rganishdan so‘ng ma’lum bo‘ldiki, turkiy va eroniyzabon qabilalar arxeologik manbalarning asosida etnik asos bo‘ldi. Ammo faqat arxeologik manbalarga tayanib qolmaslik kerak, ya’ni o‘zbek xalqining kelib chiqishi tarixini tarixiy yozma, lingvistik, antropologik va numizmatik manbalarni chuqur tahlil qilib o‘rganib so‘ng ilmiy xulosa qilish kerak bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Doniyorov A., Bo‘riev O., Ashirov A. Markaziy Osiyo xalqlari etnologiyasi. Toshkent, 2020
2. Асқаров А. Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. Тошкент, 2007.
3. Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. Тошкент, 2014.
4. Хўжаев А. Марказий Осиё халқлари тарихи. Тошкент, 2010.
5. Шониёзов К. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. Тошкент, 2001.